

Kreditning to'liq qiymati

(raqam va so'z bilan yoziladi)

“Green” iste'mol krediti shartnomasi № _____

(aholi punkti)

Aksiyadorlik tijorat Xalq banki nomidan (bundan buyon shartnoma matnida « Bank » deb yuritiluvchi) ____-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi ____ bank xizmatlari markazi boshlig'i/rahbari _____, bir tomondan hamda bundan buyon matnda « Qarzdor » deb yuritiluvchi, ____yil ____da tug'ilgan , hozirda ____da yashovchi, ____da _____tomonidan berilgan, ____ seriya, ____ raqamli pasportga ega bo'lgan , fuqaro ____, ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1.Bank Qarzdorga iste'mol tovari sotib olish uchun moliyaviy iste'mol krediti (keyingi o'rinlarda « kredit ») berish majburiyatini , Qarzdor esa olingan kredit mablag'ini belgilangan muddatda qaytarish majburiyatini oladi.

Kredit bo'yicha to'lov iste'mol tovari bahosining 100% miqdorida naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan to'lanadi .

2. Kredit shartlari

2.1.Kredit summasi ____ (____) so'm.

2.2.Kreditdan foydalanish muddati: _____oy

2.3. Asosiy kredit hamda kreditga hisoblangan foizlarning qaytarilishi mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to'lov jadvaliga (1- ilovaga) muvofiq amalga oshiriladi.

2.4.Kredit bo'yicha foiz stavkasi: ____% (____).

2.5.Foizlarni to'lash muddati : har oyning **5 sanasigacha**.

2.6.Kreditning imtiyozli davri: ____ oy.

2.7.Kreditning maqsadi va obyekti: _____sotib olish.

2.8.Kredit tuliq qiymati (KTQ)

3.Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1.Bankning majburiyatlari:

3.1.1.Qarzdorga mazkur shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va shartlarda ushbu shartnoma kuchga kirgandan so'ng , besh bank ish kuni ichida kredit ajratish;

3.1.2.Olingan kreditni hisoblash uchun Qarzdorga ssuda hisob raqamini ochish;

3.1.3.Qarzdorni Bank tomonidan kreditni muddatidan oldin undirish faktlari va sabablari haqida xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.2.Qarzdorning majburiyatlari:

3.2.1.Kreditni mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda o'z vaqtida va to'liq qaytarilishi hamda to'lanishini ta'minlash ;

3.2.2.Kreditdan faqat mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilgan maqsadlarda foydalanish ;

3.2.3.Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy tamoyillari : muddatlilik , qaytarishlilik , maqsadlilik , to'lovlilik , kredit qaytarilishining ishonchliligi va ta'minlanganlik talablariga rioya qilish;

3.2.4.Bank xodimlariga maqsadli tekshirishlar (kreditdan maqsadli foydalanish va tovarning butligi masalalari bo'yicha) o'tkazishlari uchun ruxsat berish majburiyatini oladi .

Maqsadli tekshirishlar muddati qarzdorning roziligisiz Bank tomonidan belgilanadi.

3.2.5.Mazkur shartnoma kuchda bo'lgan davrda va Qarzdorning mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlar bo'lsa , Bankning oldindan roziligini olmasdan , Qarzdor quyidagi harakatlardan birortasini **amalga oshirmasligi zarur:**

- boshqa banklardan kredit va qarz olish , uchinchi shaxslarning kreditorlari oldida kafil (yoki garant) bo'lish;

- kredit hisobiga sotib olingan iste'mol tovarninghammasini yoki bir qismini sotish yoki boshqa yo'llar bilan begonalashtirish , begona shaxslarga berish , ijaraga berish , garovga qo'yish va uchinchi shaxslar foydasiga o'z mulkiga nisbatan boshqa imtiyozli huquqlarni vujudga keltirish;

3.2.6.Mazkur shartnoma bo'yicha bir yilda bir marta hisobot yilining10 yanvariga qadar Bankka o'rtacha oylik ish haqi to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etish;

3.2.7.Qarzdorning ish joyi , yashash manzili , familiyasi , ismi o'zgarganda 5 kun muddat ichida Bankni xabardor qilish;

3.2.8. Qarzdor o'zining va Kafilning bankdagi barcha bank hisobvaraqlari (plastik karta, omonat va boshqa) to'g'risidagi ma'lumotlarni bankka taqdim etish;

3.2.9. Xalq bankinging " Contact center " operatorlari qo'ng'iroqlariga xushmuomalalik bilan javob berish va muloqatda bo'lish hamda SMS xabarlarini ijobiy qabul qilish;

3.2.10. Telefon raqami o'zgargan hollarda , zudlik bilan Bankni xabardor qilish . Bunda, telefon raqami o'zgargan kundan boshlab ikki ish kunida Xalq bankinging " Contact center " operatorlari orqali Bankni xabardor qilishi majburiyatini oladi.

3.2.11. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq o'ziga taalluqli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni va bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni to'plash , qayta ishlashga va ulardan foydalanishga ushbu shartnomaning 2-ilovasiga muvofiq o'z roziligini berish majburiyatlarini oladi.

3.3.Bankning huquqlari:

3.3.1. Qarzdor to'lovga layoqatsiz deb topilganda , kreditni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda , kreditdan maqsadsiz foydalanganda , shartnoma imzolanganidan keyin taqdim etilgan kreditni qaytarilishiga ta'sir ko'rsatuvchi ma'lumotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda hamda Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganidan so'ng Qarzdor tomonidan kreditdan 1 oydan ko'p muddat davomida foydalanilmaganda (to'lov hujjatlarini taqdim etmaslik) ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish.

3.3.2. Kreditlash jarayonida ajratilgan kreditga tegishli bo‘lgan holatlarni (kreditdan maqsadli foydalanish , kreditning ta‘minlanganligi , kreditga layoqatliligi va boshqalar) tahlil qilish.

3.3.3. Bevosita Qarzdor joylashgan yerda maqsadli tekshirishlarni amalga oshirish.

3.3.4.Quyidagi hollarda Qarzdorni bundan buyon kreditlashni to‘xtatish hamda kredit bo‘yicha asosiy qarzni muddatidan oldin , jumladan undiruvni kredit ta‘minotiga qaratish orqali undirish:

- kreditdan maqsadsiz foydalanilganda;
- Qarz oluvchi shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to‘lov jadvaliga rioya etmaganligi oqibatida muddati o‘tgan qarzdorligi yuzaga kelgan hollarda;
- mazkur shartnomaga asosan Bank tomonidan monitoring o‘tkazilishidan bo‘yin tovlaganda (bosh tortganda);
- qarzdor tomonidan Bankka kredit hujjatlarini rasmiylashtirilayotganda taqdim etilgan ma‘lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;
- ajratilgan kreditning qaytarilishi turli sabablarga ko‘ra ta‘minlanmagan bo‘lib qolgan hollarda , shuningdek kredit qaytarilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi mazkur shartnomada ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarilmaganda;

Bunday hollarda Bank oldindan 15 kundan ko‘p bo‘lmagan muddat ichida qarzdorni ogohlantiradi , ammo qarzdorning Bank tomonidan ogohlantirilmaganligi Bankning bundan buyon kreditlashni to‘xtatish hamda kredit bo‘yicha asosiy qarzni muddatidan oldin undirishga bo‘lgan huquqiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmaydi.

3.3.5.Qarzdorning kredit tarixini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni Banklararo kredit byurosiga taqdim etish.

3.3.6. Mazkur shartnoma bo‘yicha Qazdorning muddati o‘tgan qarzdorligi yuzaga kelgan hollarda , Bank o‘zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan tegishli pul mablag‘larini (asosiy kredit,penya) O‘zbekiston RespublikasiFuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarzdor va Kafilning barcha hisobvaraqlari (plastik karta, omonat va b.) dan ularning topshirig‘isiz akseptsiz tartibda memorial order orqali ko‘chirib (undirib) olish;

3.3.7. Xalq bankining “ Contact center ” operatorlari orqali Qarzdorning mobil telefoniga to‘lov jadvaliga muvofiq to‘lovlar yaqinlashayotganligi haqida 10 kun oldin SMS xabarlar yuborish;

3.3.8. Qarzdor tomonidan kredit mazkur shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lanmagan hollarda , Xalq bankining “ Contact center ” operatorlari orqali Qarzdorning mobil telefoniga SMS eslatmalar yuborish . Shuningdek , Qarzdor bilan shaxsan muloqat olib borgan holda to‘lovlar belgilangan muddatlarda amalga oshirilishi lozimligi haqida , hamda aks holda Qarzdorga nisbatan qonuniy choralar ko‘rilishi mumkinligi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini amalga oshirish , shuningdek shu mazmunda SMS xabarlar yuborish huquqiga ega.

3.3.9. O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida”gi va “ Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunlariga hamda Xalq banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan “ Axborotni , shu jumladan shaxsiy ma‘lumotlarni va bank sirini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarni to‘plash , qayta ishlashga rozilik shartlari”ga muvofiq Qarz oluvchiga taalluqli bo‘lgan shaxsiy ma‘lumotlarini va bank sirini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlarini to‘plash , qayta ishlashga va ulardan foydalanish;

3.3.10. Ajratilgan kreditning maqsadli ishlatilishi yuzasidan monitoringni taqdim etilgan oldi-sotdi shartnomalarida belgilangan , kredit mablag‘i hisobiga mahsulotlarni

yetkazib berish va/yoki xizmatlar (ish) ko'rsatishning oxirgi muddatlari tugaganidan so'ng , joyiga chiqqan holda amalga oshirish huquqlariga ega.

3.3.11. Ajratilgan kredit mablag'lari yoki uning bir qismi Qarz oluvchi tomonidan maqsadsiz ishlatilganligi aniqlangan hollarda , Qarz oluvchiga nisbatan tegishli chora ko'rish va qarzdorlikni undirish uchun materiallarni huquqni muhofaza kiluvchi organlarga va tegishlilik bo'yicha sudga taqdim etish huquqlariga ega.

3.4.Qarzdorning huquqlari:

3.4.1.Oldindan (5 bank ish kuni davomida) Bankni xabardor qilib , kredit olishdan to'liq yoki qisman voz kechish;

3.4.2.Kreditni muddatidan oldin qaytarish.

3.4.3.Kreditlash va hisob-kitoblar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlari va Bankning ichki me'yoriy hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish . Shuningdek , Xalq bankining " Contact centri " orqali bankdan olingan kredit yuzasidan tegishli ma'lumotlarni olish.

4.Hisob-kitoblar tartibi va shartnoma bahosi

4.1.Mazkur shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida Bank kredit summasini qarzdorning ssuda hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan iste'mol tovari sotib olish uchun to'laydi.

4.2.Kreditdan foydalanganlik uchun foizlar har kuni Bank tomonidan hisoblab boriladi.

4.3.Qarzdor shartnoma shartlariga asosan ajratilgan kreditni naqd pulda , bank plastik kartasi orqali pul o'tkazish yo'li bilan hamda amaldagi qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa usullarda to'lashi mumkin.

4.4.Mazkur shartnoma bo'yicha Bank o'zining talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan tegishli pul mablag'larini O'zbekiston RespublikasiFuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq Qarzdorning hisobvarag'i (plastik karta, omonat va b.) danuning topshirig'isizakseptsiz tartibda memorial order asosida ko'chirib (undirib) olishga haqlidir.

4.5.Qarz oluvchining krediti bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan hollarda , qarzdorlik quyidagi navbatda qoplanadi:

Birinchi navbatda asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;

Ikkinchi navbatda joriy davr uchun xisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;

Uchinchi navbatda neustoyka (jarima, penya) va undan keyingi navbatda Qarz oluvchining qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

5.Kredit qaytarilishining ta'minlanishi

5.1. Mazkur shartnoma asosida ajratilgan mikroqarz, _____ning ajratilayotgan kredit summasining 125%, ya'ni _____ (_____) so'm miqdoridagi kafilligi bilan ta'minlanadi.

5.2.Bankning ushbu shartnoma bo'yicha majburiyati (kredit ajratish) kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjatlar belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilgandan va u Bank tomonidan olingandan so'ng kuchga kiradi.

6.Tomonlarning javobgarligi

6.1.Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarzdor Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomada belgilangan foiz stavkasining 1,2 baravar oshirilgan miqdorida yuqori foiz to'laydi.

Asosiy qarz belgilangan muddatlarda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarzdor Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4% miqdorida , ammo kechiktirilgan to'lov summasining 10%dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

6.2.Mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda kredit ajratilmaganda , Bank Qarzdorga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1% miqdorida , ammo kechiktirilgan to'lov summasining 10% dan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

7.Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokara va maslahatlar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

7.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga asosan sud tartibida hal etiladi.

8. Korrupsiyaga qarshi shartlar

8.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar , ularning affillangan shaxslari , xodimlari va vositachilari biror noqonuniy ustunlikka yoki boshqa imtiyozlarga erishish uchun biror bir shaxsga , uning harakatlari yoki qaroriga ta'sir o'tkazish maqsadida , bevosita yoki bilvosita biror bir pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydi , to'lashni taklif etmaydi va bunday to'lovni amalga oshirishga ruxsat bermaydi.

8.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar , ularning affillangan shaxslari , xodimlari va vositachilari amaldagi qonunchilik bilan pora berish /pora olish , tijoratda pora evaziga og'dirib olish kabi tasniflanadigan harakatlarni , shuningdek amaldagi qonunchilikka doir xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan boshqa harakatlarni amalga oshirmaydilar.

8.3. Shartnomaning har bir Tomoni boshqa Tomonning xodimlarini rag'batlantirishdan , shu jumladan xodimlarga pul mablag'lari , sovg'alar berish va ular uchun tekin ishlar (xizmatlar)ni bajarish va boshqa yo'llar orqali ularni ma'lum bir tobelikka olib kelishi mumkin bo'lgan va rag'batlantiruvchiMazkur hujjat elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi . Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun mobil telefon yordamida QR- kodni skaner qiling . www.xb.uz vebsaytiga o'ting va elektron hujjat to'g'risida ma'lumotlarni oling.tomonning foydasiga xodimlar biror bir xatti-harakatlarni bajarishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlardan voz kechadilar.

8.4. Tomonlarda har qanday korrupsiyaga qarshi shartlar buzilganligi yoki buzilishi mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan shubha tug'ilganda , tegishli tomon yozma ravishda yoki aloqa kanallari orqali og'zaki tarzda boshqa tomonni xabardor qiladi . Shuningdek ,

ushbu tomondan ma'lum muddat ichida tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan uni xabardor etishini talab qilishi shart . Tomonning bu talabi ikkinchi tomon tarafidan bajarilmagan taqdirda , ushbu tomon shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga , bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

8.5. Tomonlar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

9. Boshqa shartlar

9.1.

Ushbu shartnomaning shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi . Mazkur shartnomaga kiritiladigan har bir o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib , tomonlar imzolaganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi . Barcha o'zgartirish , qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi .

9.2.

Ushbu shartnoma bekor qilinishida qarzdor kredit bo'yicha asosiy qarz va hisoblangan foizlarni to'liq qaytarishi shart.

9.3. Qarzdorni kredit tarixini o'rganish maqsadida, uning kredit tarixi to'g'ri sidagi ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Kredit axboroti milliy institutining (keyingi o'rinlarda KAMI) ma'lumotlar bazasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit berilishidan oldin olinadi.

9.4. Ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan , u bilan bog'liq bo'lgan barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi .

9.5. Tomonlarning manzillari o'zgargan hollarda 5 (besh) ish kuni muddat ichida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

9.6. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan to'rt nusxada tuzilgan bo'lib , taraflarda bir nusxadan saqlanadi.

Ilova : Asosiy qarz va foizlarni qaytarish bo'yicha jadvali.

10. Tomonlarning yuridik manzillari va imzolari

<p>«Bank»</p> <p>Aksiyadorlik tijorat Xalq banki _____ bank xizmatlari markazi</p> <p>Manzil: _____</p> <p>MFO: _____;</p> <p>INN: _____;</p> <p>Aloqa tel.raqami : (71) 210-20-02</p> <p>Filialboshqaruvchisi: _____</p> <p>_____</p> <p>M.O'.</p>	<p>«QARZDOR»</p> <p>_____</p> <p><i>I.F.Sh</i></p> <p>Manzil : _____ viloyati _____.</p> <p>Pasport: _____; _____yil _____ tomonidan berilgan.</p> <p>Tel: {phone}</p> <p>_____</p>
---	---

